Jinoyat obyekti to‘g‘risidagi ta’limot jinoyat huquqiy fanining eng murakkab va ziddiyatli institutlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy va milliy yuridik adabiyotlarda jinoyat obyektini ta’riflashga oid turli xil yondashuvlar mavjud.

Germaniyalik olim G. Jeykobs o‘z tadqiqotlarida jinoyat obyektini inkor etib, uni normaga almashtiradi, ya’ni jinoyat huquqining vazifasini moddiy qadriyatlarni emas, balki normativlik (qonuniylik, majburiylik) tizimini muhofaza qilish ekanini ta’kidlaydi (Jakobs, 1995). U jinoyat obyektini alohida kategoriya sifatida ko‘rishni inkor etib, uni buzilgan norma va ijtimoiy rol sifatida ko‘rsatadi. Biroq bu yondashuv qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda amaliy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. V. Melnikova esa jinoyat obyektini ijtimoiy xavfli qilmish ularga qarshi qaratilgan, zarar yetkaziladigan yoki zarar yetkazishning haqiqiy xavfi yuzaga keladigan, jinoyat qonunchiligi bilan himoyalanadigan ijtimoiy munosabatlar sifatida ta’riflaydi (Melnikova, 1996).

G. Vilyams, M. Dubber, D. Baker, A. Ashvort va J. Horder kabi xorijiy olimlar jinoyat obyektini faqat umumiy va maxsus obyekt turlariga ajratishni taklif etib, turdosh va bevosita obyektlarni oraliq kategoriya sifatida qilmishni kvalifikatsiya qilishni qiyinlashtiradi, deb hisoblashadi (Williams, 1961; Dubber, M. 2014; Baker, 2023; Ashworth & Horder 2013). Biroq bugungi kunda SI texnologiyalari orqali bir necha muhofaza qilingan obyektlarga bir vaqtning o‘zida tajovuz qiluvchi murakkab tarkibli jinoyatlar paydo bo‘layotganligi sababli faqat ikki elementli tasnif yetarli emas.

Mamlakatimiz olimlari X.R. Ochilov, Sh.D. Xaydarov va Z. Shamsidinov kabi olimlar jinoyat obyektini umumiy, maxsus (turdosh) va bevosita turlarga bo‘lib o‘rganishgan (Ochilov et al., 2021). M. Rustambayev (2018) jinoyat obyekti turlarini vertikal va gorizontalligiga ko‘ra tasniflashni taklif etadi. Gorizontal tasnif, ayniqsa, kiberjinoyatlarda (bitta qilmish ham mulk, ham axborot xavfsizligiga tajovuz qilganda) muhofaza qilinuvchi munosabatlar o‘rtasidagi funksional iyerarxiyani belgilash uchun o‘ta muhim sanaladi.

SI huquqiy maqomi bo‘yicha milliy doktrinada jiddiy bahslar mavjud. Akademik A. Saidov va professor O. Okyulovlar SI obyektlariga nisbatan “oshirilgan xavf manbasi” rejimini tatbiq etib, Fuqarolik kodeksining

999-moddasi orqali javobgarlikni baholashni taklif etishadi (Saidov & Okyulov, 2025). B. Axrarov va M. Baratovlar (2020) bu turdagi subyektlarga nisbatan fuqarolik qonunchiligi yetarli desa, D. Kushbakov (2021) jinoiy javobgarlik doirasini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, SI ishtirokidagi jinoyatlarning obyektiv belgilarini faqat sivilistik yondashuv bilan izohlab bo'lmaydi.

Olimlar orasida bugungi kundagi dolzarb savollardan biri bu shubhasiz SIning jinoyat huquqiy maqomi: subyektmi yoki vosita? SI texnologiyalari ishtirokida sodir etiladigan qilmishlarning obyektiv belgilarini tahlil qilish asnosida avvalo ushbu obyektning maqomi masalasini hal qilish lozim. SI jinoyatning to'laqonli subyekti bo'lishi mumkin emas. Sababi, unda ong va iroda mavjud emas. Jinoyat huquqining fundamental prinsiplariga ko'ra, subyekt o'z qilmishiga nisbatan ruhiy munosabat (qasd yoki ehtiyotsizlik) bildirishi shart. Jazoning asosiy maqsadlari bo'lgan axloqiy tuzatish va jinoyatlarning oldini olish faqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan hisoblanadi. SI (algoritm, neyrotarmoq) axloq, vijdon va pushaymonlik kabi subyektiv xislatlardan xolidir. Demak, SI o'ta xavfli, murakkab intellektual jinoyat vositasi hisoblanadi.

Fuqarolik-huquqiy va jinoiy javobgarlik o'rtasida kolliziyalar mavjud. Jumladan, SIning yetkazgan zararlari uchun faqatgina O'zR Fuqarolik kodeksining 999-moddasiga (oshirilgan xavf manbayi egasining javobgarligi) tayanish kollizion va samarasiz yondashuvdir. Fuqarolik huquqi jamiyatdagi normal, tabiiy huquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi (Topildiyev, 2022). Jinoyat huquqi esa qo'riqlovchi funksiyani bajaradi. Agar SI tizimi (masalan, jangovar avtonom dron yoki tibbiy robot) inson hayotiga xavf tug'dirib o'limga sabab bo'lsa, uni sof fuqarolik-huquqiy delikt sifatida baholab bo'lmaydi. Qotillik fakti mulkiy munosabatlar chegarasidan chiqib, shaxs va jamoat xavfsizligiga qarshi og'ir jinoyat hisoblanadi. Bunday oqibatlarda fuqarolik qonunchiligiga suyanib qolish, qotillikni oddiy mulkiy nizoga tushirib qo'yadi. Boz ustiga, SIning avtonomlik va "qora quti" ("black box") xususiyatlari tufayli an'anaviy javobgarlik zanjiri uziladi. Insonni u oldindan ko'ra olmagan oqibatlar uchun javobgarlikka tortish esa asossiz obyektiv inkriminatsiyani vujudga keltiradi.

Kiberjinoyatchilikning kriminologik tendensiyalarini 2021–2026-yillarga nazar soladigan bo'lsak, statistik tahlillar kriminogen xaritada tub burilish yuz berganini tasdiqlaydi. 2025-yilda O'zbekistonda ro'yxatga olingan 155 002 ta jinoyatning 49,6 %i (76 852 ta) aynan kiberjinoyatlardir. Moddiy zarar 3 trillion 730 milliard so'mdan oshgan bo'lib, shundan 2,1 trillion so'mi bevosita 2025-yil hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu jinoyatlarning strukturaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarning 48,4 %i (37 261 ta) axborot tizimlariga noqonuniy kirish orqali qilingan kibermakonda sodir etilgan o'g'rilik jinoyatiga, 47,1 %i (36 265 ta) SI vositalari (dipfeyk, ovoz klonlash) orqali qilingan kibermakondagi firibgarlik jinoyatiga to'g'ri kelmoqda (UzDaily, 2023).

Yashnobod tumanida 2025-yilda bevosita kiberjinoyatchilikka oid 29 ta ariza kelib tushgan bo'lsa, 2026-yilning birinchi choragidayoq bu ko'rsatkich allaqachon 16 tani tashkil etmoqda (ya'ni o'sish dinamikasi keskin saqlanib qolgan). Yashnobod tumanida 2025-yilda kiberjinoyatchilikka oid arizalarning 37,5 %i Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasi 2-qismi, ya'ni qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmaganligi asosi bilan tugatilgan. Bu kriminologiyada "huquqni qo'llashdagi inqiroz" deb ataladi: fuqarolarning pullari elektron tarzda talon-toroj qilinmoqda. Biroq tergov organlari eskirgan normativ bazaga tayanib, ko'p hollarda "fuqarolik-huquqiy munosabat" degan vaj bilan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etishmoqda yoki tugatishmoqda.

Yashnobod tumanida 2025-yilda qo'zg'atilgan jinoyat ishlari tarkibida 62,5 %ini kiberfiribgarlik (JKning 168-moddasi) va 37,5 %ini kibero'g'rilik (JKning 169-moddasi)

tashkil etgan. 5 ta holatda esa jamoat xavfsizligi va tartibiga tahdid soluvchi materiallarni kibermakonda tarqatish (JKning 2441-moddasi) holatlari aniqlangan. Moddiy zarar masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, birgina Yashnobod tumanida 2025-yilda fuqarolarga yetkazilgan moddiy zarar miqdori 107 000 000 (bir yuz yetti million) so‘mdan ortiqni tashkil etgan. 2026-yildagi 16 ta jinoyat arizasining aksariyati firibgarlik ekani, jinoyatchilar aholining ishonuvchanligidan foydalanish bo‘yicha ijtimoiy muhandislik usullarini yanada takomillashtirganini ko‘rsatadi.

Jinoyatlarni fosh etish ko‘rsatkichlari amaldagi tizimning mutlaqo qoniqarsiz ekanligini ko‘rsatadi. Yashnobod tumanida 2026-yildagi ushbu jinoyatlarning atigi 12,5 %i fosh etilgan bo‘lib, qolgan 87,5 %i ochilmasdan qolmoqda. O‘tgan yillar kesimida ham respublika bo‘yicha fosh etilish o‘rtacha 27,5 % atrofida bo‘lgan. Bu raqamlar kiberjinoyatlarning latentlik (yashirin) darajasi favqulodda yuqori ekanligini, dalillarni to‘plash, IP-manzillarni aniqlash, kriptotranzaksiyalarni kuzatish kabi raqamli tergov institutlari jiddiy islohotga muhtojligini ko‘rsatadi. Ushbu joylarda, asosan ustoz-shogird an’analariga tayangan an’anaviy tergov uslublari kiberhujumlar oldida ojiz qolmoqda.

Eng xavotirli xulosa shundan iboratki, kiberjinoyatchilik chegarasiz jinoyatdir. Tahlil natijalariga ko‘ra, Yashnobod tajribasida jinoyat sodir etgan shaxslarning atigi 21 %i aynan o‘sha hududda istiqomat qilgan. Qolgan 79 %i esa hududdan tashqarida boshqa viloyatda yoki hatto xorijiy davlatlarda turib, VPN va proksi-serverlar orqali masofaviy usulda hujumlarni amalga oshirgan. Bunday transchegaraviy va ekstraterritorial xususiyat kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishni yagona mahalliy profilaktika darajasidan olib chiqib, yagona milliy va huquqiy mudofaa tizimini (Kiberjinoyat atamasining xalqaro konvensiyalarga mos ta’riflanishini) talab qiladi.

Amaldagi Jinoyat kodeksining 188^1-moddasi qabul qilingan davrda moliyaviy piramidalar asosan jismoniy infratuzilma (ofislar) ga ega bo‘lish hamda pul mablag‘larini naqd shaklda (qo‘lma-qo‘l) yig‘ish mexanizmi orqali faoliyat yuritgan. Biroq raqamli texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi natijasida mazkur jinoyatning kriminologik va deterministik portreti butunlay virtual makonga ko‘chdi. Zamonaviy kibermoliyaviy piramidalarni tashkil etuvchilar jismoniy idoralar saqlash va shaxsini ochiqlash zaruriyatidan to‘liq voz kechmoqda. Ularning virtual “ofisi” yopiq “Telegram” kanal, anonim kriptohamyon hamda xorijiy xostinglarda joylashgan, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanilgan soxta (fishing) investitsion vebplatformalardan iborat bo‘lib qolmoqda. Bu esa qilmishni kvalifikatsiya qilishda va subyektni aniqlashda transmilliy xarakterdagi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yangi avlod moliyaviy piramidalari aqlli shartnomalar, blokcheyn texnologiyalari va raqamli tokenlar niqobi ostida fuqarolarga fantastik daromad (kunlik 5-10 % foyda) va’da qilmoqda. Amaldagi JKning 188^1-moddasida noqonuniy faoliyat atamasi umumiy tarzda berilgan bo‘lib, u piramidaning iqtisodiy tub mohiyatini ochiq ko‘rsatib bermaydi. Aslida moliyaviy piramidaning yagona hal qiluvchi belgisi shundaki, yig‘ilgan mablag‘lar hech qanday iqtisodiy qadr-qimmat yaratuvchi tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirilmaydi. Barcha to‘lov (daromad deb ataluvchi tushum)lar faqatgina tizimga yangi qo‘shilgan a’zolarning badallari hisobidan eski a’zolarga qayta taqsimlanadi. Bu aniq matematik asoslangan jinoyat bo‘lib, ertami-kech qulashi kafolatlangan iqtisodiy sabotajdir.

Shu munosabat bilan, moliyaviy piramidalarga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish zarurati shundan iboratki, qonunda jinoyatning moddiy belgisi (aktivlarni tadbirkorliksiz qayta taqsimlash) aniq yozilishi kerak. Shuningdek, piramida tashkilotchilarining maqsadli ravishda yuzlab va minglab fuqarolarning hayotini barbod qilayotganini inobatga olib, ularga nisbatan

jazo sanksiyalarini favqulodda og‘irlashtirish va jinoyat orqali orttirilgan har qanday mulkni majburiy musodara qilish instituti qayta tiklanishi obyektiv ehtiyoj hisoblanadi.

Biz yashayotgan davrning eng katta texnologik inqilobi hisoblangan SI tizimlari insoniyatga qulaylik keltirish bilan birga, kiberjinoyatchilarning qo‘lida eng xavfli va ommaviy qirg‘in quroliga tenglashadigan vositaga aylanib bormoqda. Kriminologik tadqiqotlar va kiberxavfsizlik markazlari ogohlantirayotganidek, jinoyatchilar SI yordamida harakatlarni avtomatlashtirmoqda, o‘ta ishonchli soxta kontent yaratmoqda va huquq-tartibot idoralari nazoratini chetlab o‘tmoqda.

Xususan, dipfeyk texnologiyasi yordamida davlat rahbarlari, yirik biznes vakillari yoki fuqarolarning yuz qiyofasi va ovozini 99 % aniqlik bilan soxtalashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Jinoyatchilar SI yordamida taniqli shaxslarning ovozini klonlashtirib, “men falokatga uchradim, pul kerak” yoki “mana bu davlat investitsiya dasturiga pul kiriting” qabilidagi videomurojaatlarni ommaviy tarqatmoqdalar. Minglab O‘zbekiston fuqarolari aynan ijtimoiy tarmoqlardagi dipfeyk reklamalarga aldanib, moliyaviy piramida va firibgarlarga mablag‘larini o‘tkazib yuborgan.

Muammo shundaki, amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida texnologiyalar, xususan, SIdan jinoiy, g‘arazli maqsadlarda foydalanganlik uchun hech qanday maxsus javobgarlik normasi mavjud emas. Bu huquqiy bo‘shliq SI dasturchilari va foydalanuvchilari o‘rtasida to‘la jazosizlik hissini uyg‘otmoqda. Kiberjinoyatlar oldini olish borasidagi yondashuvimiz endilikda oqibat kelib chiqqanidan so‘ng kurashish emas, texnologiyani ishlab chiqish va qo‘llash bosqichidayoq jinoiy taqiq qo‘yish bo‘lishi shart.

Tahlillarning eng og‘riqli nuqtasi bu mamlakatimiz bank va moliya infratuzilmasining o‘sib borayotgan kibertahdidlarga tayyor emasligi hamda huquqiy javobgarlik mexanizmlarining noaniqligidir. 2026-yil 12-martda Prezidentga qilingan taqdimotda ko‘rsatib o‘tilganidek, o‘tgan yillarda atigi 3 ta bank tizimidagi SI tufayli birdaniga 3025 nafar mijozning hisobidan pullar o‘g‘irlangan va ularga 17 milliard so‘m moddiy zarar yetkazilgan (Mirziyoyev, 2026).

Banklar, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlari katta miqdorda daromad ko‘rayotgan bo‘lishiga qaramay, ko‘plab hollarda axborot xavfsizligi uchun yetarli sarmoya kiritishmayapti. Ikki faktorli autentifikatsiya, shubhali tranzaksiyalarni bloklovchi firibgarlikka qarshi tizimlari yo eskirgan, yoki tejamkorlik maqsadida o‘chirib qo‘yilgan. Bunga sabab, amaldagi qonunchilikda banklarning kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi uchun jinoiy javobgarlik yo‘qligidir. Jinoyatchi pullarni o‘g‘irlaydi, jabrlanuvchi yillab pulini qaytarolmaydi. Bank esa “biz mas’ul emasmiz, mijoz parolini o‘zi berib qo‘ygan” degan standart bahona bilan javobgarlikdan qutulib qolmoqda. Bunday adolatsizlikka barham berish, moliya tashkilotlarini mijozlar xavfsizligini ta’minlashga majbur qilish uchun qonunchilikda “tizimli profilaktika” sifatida bank mas’ul shaxslariga nisbatan qat’iy jinoiy va moddiy javobgarlik kiritilishi obyektiv huquqiy zaruratdir.

Ikkinchi yirik muammo bu dropperlik sindromidir. Kiberjinoyatchilar o‘g‘irlangan pullarni izsiz yo‘qotish va naqdlashtirish uchun yuzlab fuqarolarning bank kartalaridan foydalanadilar. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, talabalar va huquqiy savodi past fuqarolar arzimas haq (masalan, 100 000 so‘m) evaziga o‘z nomlariga bank kartasi ochib, uning boshqaruvi (login-paroli) va SIM-kartalarini begona (jinoyatchi)larga sotib yuborishmoqda. Bu qatlam kriminologiyada dropperlar deb ataladi. Ular bilvosita tarzda xalqaro kiberjinoyatchilik sindikatlarining pul yuvish zanjiridagi eng muhim halqasiga aylanmoqda. Amaldagi qonunchilikda o‘z bank kartasini va elektron akkauntini kiberjinoyat uchun ijaraga yoxud foydalanishga berganlik uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’muriy va jinoiy javobgarlik yo‘q. Zanjirning ayni

shu qismi qonunan uzilmas ekan, kiberjinoyatchilar xorijdan turib bemalol pullarni o‘zlashtirishda davom etaveradi.

Yuqorida tahlil qilingan dalillar, xususan, kiberjinoyatchilik ko‘rsatkichlarining yuzlab barobarga oshishi, moddiy zararning trillionlab so‘mga yetishi, SI kabi yangi tahdidlarning o‘sib borishi shuni bildiradiki, bizning amaldagi jinoyat va ma’muriy qonunchiligimiz chuqur kechikkan, reaktiv xarakterga ega. Ya’ni qonun faqatgina jinoyat sodir bo‘lib, fuqaro pulini yo‘qotib, oilasi xonavayron bo‘lganidan keyingina ishga tushadi. Biroq kibermakonda pul bir necha soniyalar ichida yuzlab offshor hisoblarga bo‘linib chiqib ketadi. Shuning uchun an’anaviy jazo bu yerda samarasizdir.

Zamonaviy raqamli xavfsizlik siyosati jinoiy jazo choralarini oqibatlar bilan kurashishdan barvaqt oldini oluvchi va xavfni neytrallashtiruvchi darajaga ko‘tarishni talab etadi. Qonunchilikka kiritilayotgan yangi normalar aynan shu maqsadda fuqarolarda o‘z ma’lumotlariga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni oshirish, moliya muassasalarida himoya infratuzilmasini qurish majburiyatini mustahkamlash, moliyaviy piramidalar va SI orqali qilingan jinoyatlarga esa o‘ta qat’iy, ayovsiz chora ko‘rish mexanizmlarini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

SI ishtirokidagi jinoyatlarda harakat yoki harakatsizlik odatiy jinoyatlardagidek jismoniy kuch, ruhiy bosim va shu kabi odatiy psixofiziologik holatlar emas, balki raqamli manipulyatsiya va avtomatlashtirish orqali sodir etiladi. SI ishtirokidagi ijtimoiy xavfli qilmishlarning obyektiv tomonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, SI jinoyat to‘laqonli subyekti emas, balki o‘ta xavfli, intellektual va yuqori tezlikda harakatlanuvchi jinoyat vositasidir. Asosiy huquqiy muammo shundaki, SI tomonidan mustaqil hosil qilingan (generatsiya qilingan) zararli oqibatlar va uni yaratgan dasturchi yoki foydalangan shaxs o‘rtasidagi yuridik sababiy bog‘lanishni aniqlash uslubining yo‘qligidir. Hozirgi kunda mavjud SI texnologiyalari o‘z-o‘zidan jinoyat subyekti bo‘la olmagani bois, u orqali zarar yetkaziladigan ijtimoiy munosabatlarni aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, amaldagi jinoyat qonunchiligi chuqur kechikkan va faqat reaktiv xarakterga (oqibat kelib chiqqandan so‘ng kurashish) ega bo‘lib qolgan. Zamonaviy raqamli xavfsizlik siyosati jinoiy jazo choralari preventiv, ya’ni oldini oluvchi bo‘lishiga xizmat qilishini talab etadi. Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga quyidagi ilmiy asoslantirilgan takliflar kiritilishi ilgari suriladi.

Birinchidan, Jinoyat kodeksining 25-moddasi doirasida, axborot texnologiyalari sohasida g‘arazli maqsadlarda SI algoritmlarini yozish, neyrotarmoqlarni jinoiy maqsadlarda o‘qitish va moslashtirishni to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning maxsus raqamli shakli sifatida e’tirof etuvchi me’yorlarni kiritish lozim.

Ikkinchidan, Jinoyat kodeksining axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bobi tarkibiga SI texnologiyalarini g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda ishlab chiqish, qayta dasturlashtirish, tarqatish, foydalanish va boshqa harakatlarni amalga oshirishni mustaqil jinoyat tarkibi sifatida kiritish lozim.

Uchinchidan, Jinoyat kodeksining 56-moddasiga qo‘shimcha “i^1” band, ya’ni sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etishni jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida e’tirof etish lozim.

To‘rtinchidan, mijozlar xavfsizligiga e’tiborsizlikni bartaraf etish uchun bank, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tashkilotlarining mas’ul shaxslariga nisbatan davlat tomonidan belgilangan kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik oqibatida ommaviy moddiy zarar kelib chiqqan holatlar uchun qat’iy jinoiy va moddiy javobgarlikni belgilash lozim.

Beshinchidan, Jinoyat kodeksiga yangi 121^1-modda, ya’ni raqamli jinsiy tajovuzni kiritish lozim. Jumladan, SI, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yoki sintetik

mediatexnologiyalar yordamida shaxsning roziligisiz uning yuzi, tana a'zolari yoki ovozini o'zgartirish, soxtalashtirish yoki ularni sun'iy ravishda yaratish orqali pornografik xarakterdagi tasvir, video yoki audio materiallarni tayyorlash, saqlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, xuddi shuningdek, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini toptash, ruhiy azob berish yoki jinsiy aloqaga majburlash maqsadida raqamli jinsiy tahdid, tajovuz sodir etishni alohida jinoyat turi sifatida belgilanadi.

Oltinchidan, moliyaviy piramidalar bo'yicha sanksiyalarni qat'iylashtirish lozim. Jumladan, Jinoyat kodeksiga yangi 188^2-modda, ya'ni moliyaviy piramidani tashkil etish va unga rahbarlik qilishni alohida jinoyat turi sifatida kiritish lozim.

Yettinchidan, Jinoyat kodeksiga yangi 130^2-modda, ya'ni SI yordamida noqonuniy kontentni tayyorlash va tarqatishni alohida jinoyat turi sifatida kiritish lozim.

Sakkizinchidan, Jinoyat kodeksiga yangi 168^1-, 169^1-moddalar, ya'ni axborot tizimlaridan foydalanib firibgarlik va o'g'rilik sodir etishni alohida jinoyat tarkibi sifatida ajratish lozim.

To'qqizinchidan, Jinoyat kodeksining 278^1-moddasini axborotlashtirish va kiberxavfsizlik qoidalarini buzish deya qayta tahrirlab, modda dispozitsiyasini "Axborotlashtirish va kiberxavfsizlik qoidalarini buzish, ya'ni belgilangan himoya choralarini ko'rmagan holda axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va banklarini, axborotga ishlov berish hamda uni uzatish tizimlarini yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish hamda axborot tizimlaridan ruxsat bilan foydalanish fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa" deya o'zgartirish kerak.

O'ninchidan, kiberjinoyat zanjirini uzish maqsadida o'z bank kartasi, elektron akkaunti, identifikatsiya ma'lumotlarini g'arazli maqsadlarda boshqa shaxslarga ijaraga berish, sotish yoxud qasddan topshirganlik (dropperlik faoliyati) uchun to'g'ridan to'g'ri ma'muriy va uning ortidan jinoiy javobgarlikni o'rnatish lozim.

Xulosa

Mamlakatimizda raqamli huquq va kiberxavfsizlik kafolatlarini ta'minlash, jamiyatimizni iqtisodiy barqarorlikka olib chiqish maqsadida tadqiqotlar va o'rganishlarimiz natijasida, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar har tomonlama asoslantirilgan, kechiktirib bo'lmas va hayotiy zaruratdir.

Ushbu normalarning amaliyotga joriy etilishi jamiyatni raqamli iqtisodiy inqirozlardan saqlashga hamda fuqarolarning huquq va erkinliklari, mulkiy hamda shaxsiy daxlsizligi jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES

Axrarov, B., & Baratov, M. (2020). O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar javobgarligining ayrim jihatlari [Some aspects of the liability of legal entities in the Republic of Uzbekistan]. *Fair Trial*, (5), 35–41.

Ashworth, A., & Horder, J. (2013). *Principles of criminal law* (7th ed.). Oxford University Press.

Baker, D. J. (2023). *Glanville Williams & Dennis Baker: Treatise of criminal law* (5th ed.). Sweet & Maxwell.

Bozarov, S. S. (2022). *Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari* [Liability issues for damage caused by artificial intelligence]. UZA. https://cdn.uza.uz/2022/07/05/05/02/03h8FqhXBuvClYHXM6MJBeh509lkZFPo.pdf

Dubber, M. D. (Ed.). (2014). *Foundational texts in modern criminal law*. Oxford University Press.

Hallevy, G. (2013). *When robots kill: Artificial intelligence under criminal law*. University Press of New England.

Horder, J. (2023). *Ashworth's principles of criminal law* (10th ed.). Oxford University Press.

Ivashchenko, M. A. (2020). Iskusstvennyy intellekt v ugolovnom zakonodatelstve Rossii [Artificial intelligence in Russian criminal law]. *Academic Thought*, *4*(13), 62–65.

Jakobs, G. (1995). Das Strafrecht zwischen Funktionalismus und „alteuropäischem“ Prinzipiendenken [Criminal law between functionalism and traditional European principles]. Journal for the Entire Field of Criminal Law, 107(4), 843–876. https://doi.org/10.1515/zstw.1995.107.4.843

Kamalova, G. G. (2020). Nekotorye voprosy ugolovno-pravovoy otvetstvennosti v sfere primeneniya sistem iskusstvennogo intellekta i robototekhniki [Some issues of criminal liability in the field of application of artificial intelligence systems and robotics]. *Bulletin of Udmurt University. Series Economics and Law*, *30*(3), 412–418.

Kashkin, S. Y., Tishchenko, S. A., & Altukhov, A. V. (2020). Pravovoe regulirovanie primeneniya iskusstvennogo intellekta dlya borby s rasprostraneniem COVID-19: Problemy i perspektivy s uchetom mirovogo opyta [Legal regulation of the use of artificial intelligence to combat the spread of COVID-19: Problems and prospects based on global experience]. *Lex Russica*, (7), 122–132.

Kibalnik, A. G., & Volosyuk, P. V. (2018). Iskusstvennyy intellekt: Voprosy ugolovno-pravovoy doktriny, ozhidayushchie otvetov [Artificial Intelligence: Questions of criminal law doctrine awaiting answers]. *Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, (44), 164–168.

Kushbakov, D. M. (2021). Yuridik shaxslar jinoyiy javobgarligining xususiyatlari [Features of criminal liability of legal entities]. *Academic Research in Educational Sciences*, *2*(5), 780–788.

Laptev, V. A. (2019). Ponyatie iskusstvennogo intellekta i yuridicheskaya otvetstvennost za ego rabotu [The concept of artificial intelligence and legal responsibility for its work]. *Law. Journal of the Higher School of Economics*, (2), 79–102. https://doi.org/10.17323/2072-8166.2019.2.79.102

Melnikova, V. E. (1996). *Obekt prestupleniya* [The object of a crime]. In B. V. Zdravomyslov (Ed.), *Ugolovnoe pravo Rossiyskoy Federatsii. Obshchaya chast* [Criminal law of the Russian Federation: General part] (pp. 116–128). Yurist.

Mirziyoyev Sh. M. (2026). *Uyushgan jinoyatchilik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish takomillashtiriladi* [Fight against organized crime and cybercrime to be strengthened]. President.uz. https://president.uz/oz/lists/view/9009

Ochilov, Kh. R., Xaydarov, Sh. D., & Shamsidinov, Z. Z. (2021). *Jinoyat huquqi (Umumiy qism)* [Criminal law (General part)]. TSUL Publ.

Republic of Uzbekistan. (1994). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. https://lex.uz/docs/-111453

Russell, S., & Norvig, P. (2007). *Iskusstvennyy intellekt: Sovremennyy podkhod* [Artificial intelligence: A modern approach] (2nd ed.). Williams.

Rustambayev, M. Kh. (2018). *O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi* [Course on criminal law of the Republic of Uzbekistan] (2nd ed.). Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan.

Rustambayev, M. Kh. (2021). *O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar: Umumiy qism* [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan: General part]. Yuridik adabiyotlar publish.

Saidov, A., & Okyulov, O. (2025). Sun’iy intellektning ijtimoiy maqomi va huquqiy rejimi shakllanishining istiqbollari [Prospects for the formation of the social status and legal regime of artificial intelligence]. *Scientific and Educational Journal of Democratization and Human Rights, 1*(105), 20–27.

Topildiyev, V. R. (2022). *Fuqarolik huquqi: Umumiy qism* [Civil law: General part]. Yuridik adabiyotlar publish.

UZDaily. (2023). *Senat O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish choralarini ko‘rib chiqdi* [The Senate considered measures to prevent crime in Uzbekistan]. https://www.uzdaily.uz/uz/senat-o%CA%BBzbekistonda-jinoyatchilikning-oldini-olish-choralarini-ko%CA%BBrib-chiqdi/

Vladimirova, Z. V. (2021). O vozmozhnykh sposobakh nadeleniya iskusstvennogo intellekta pravosubyektnostyu [On possible ways of granting artificial intelligence legal personality]. *Bulletin of the Master’s program*, *8*(119), 50–55.

Williams, G. (1961). *Criminal law: The general part*. Stevens & Sons.

Xudaykulov, F. Kh. (2020). *Qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat objektiv tomoni fakultativ belgilarining jinoyat-huquqiy ahamiyati* [Criminal-legal significance of optional elements of the objective side of crime in qualification of acts]. Tashkent state university of law.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 5-SON

VOLUME 6 / ISSUE 5 / 2026

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.65

DOI: https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence